

## **TILNING ILMIIY-FALSAFIY XUSUSIYATLARI**

**Xudayberganov Ravshonbek Xudaybergan o‘g‘li**

Toshkent davlat transport universiteti

“Ijtimoiy fanlar” kafedrası professori v.b., f.f.d (DSc)

E-mail: [paradigma777@bk.ru](mailto:paradigma777@bk.ru)

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada tilning ilmiy-falsafiy jihatlari yoritilgan bo‘lib, unda kommunikativ jarayonlar kontekstida tushunish va tushuntirish munosabatlarining ekstralingvistik omillarini, kundalik aloqa muammolarini uning ilmiy va ijtimoiy sohalarida o‘zaro ta’sirlarni o‘rganishni taqozo etadi. Shuningdek, tilning falsafiy xususiyatlarining asosiy vazifalaridan biri bu o‘z-o‘zini anglash imkoniyatining umumiy shartlarini aniqlashtirishdir. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, til va kommunikatsiyada qonunlar, sabablar, hodisalar, xossalar, munosabatlar avvaldan tilning ma’nolari bilan aniqlanishi, shu bois til va kommunikatsiyaning talqin qilish va ma’noni qayta tuzish holatlariga alohida e’tibor berish uning ilmiy-falsafiy tushunishda muhim omil ekanligi tahlil qililgan.*

**Kalit so‘zlar:** *ilmiy-falsafiy, til, kommunikatsiya, lingvistik, interaktiv, interpretatsion, dekonstruktiv, fenomen, ontologik va epistemologik, falsafiy-germenevtik.*

### **ABSTRACT**

*This article describes the scientific and philosophical aspects of language, which requires the study of extralinguistic factors of understanding and explanatory relations in the context of communicative processes, the problems of everyday communication and interactions in its scientific and social spheres. Also, one of the main tasks of the philosophical features of language is to clarify the general conditions for the possibility of self-realization. From this point of view, laws, causes, events, properties, relations in language and communication are determined by the meanings of the language, therefore, paying special attention to the cases of interpretation and reconstruction of the meaning of language and communication is important in its scientific-philosophical understanding. it is analyzed that it is an important factor.*

**Key words:** *scientific-philosophical, language, communication, linguistic, interactive, interpretative, deconstructive, phenomenon, ontological and epistemological, philosophical-hermeneutic.*

## **KIRISH**

XX asrda til falsafasining shakllanishi tilning tabiatiga boʻlgan qiziqishni uygʻotadi, turli qarashlar ular orasida raqobatni kuchaytiradi. Biroq anʼanaviy ontologiya va bilish nazariyasida empirik va ratsionallik paradigmalardan farqli oʻlaroq, tilning yangi modellari umumiy tezisni birlashtirdi, bu tezisga koʻra, ongning borliqqa munosabati til orqalidir. Til ong va borliqning barcha strukturalari ichiga kirib ketadi<sup>1</sup>.

Bizningcha, tashqi dunyoning mavjudligini tildan ajrata bilish kerak, shuningdek, tilni ongdan ham ajratish lozim. Biroq inson tomonidan tashqi dunyoni anglab etish til bilan shu darajada mustahkam bogʻlanganki, ayrim faylasuflarning ong va borliqni tildan ajratib olishga intilishlari – bu gʻayri tabiiy akt va buni amalga oshirish mohiyatan mumkin emas. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, olamda hodisalar, xossalar va munosabatlarning mavjudligi hech kimni shubha solmaydi. Biroq, ular til tomonidan yasaladi va tilning konstruksiyalari boʻladi. Til olamni anglangan holda konstruksiya qilish vositasi boʻlib qoladi.

Yangi davrda esa tilning tabiiy-ilmiy imkoniyatlari empirik gʻoyalar, yaʼni tajriba va amaliy faoliyat asosida tadqiq etilgan. Til falsafasi doirasidagi maxsus tadqiqotlar asosan Gerder, Gumboldt, Grimm, Lipps kabi olimlar tomonidan lingvistik va ekzistensial nuqtai-nazardan olib borilgan<sup>2</sup>. Oqibatda esa tilni oʻrganuvchi maxsus toʻrtta yoʻnalish shakllangan. Bular fenomenologiya, analitika, hermenevtika va postmodernizmdir. Mazkur yoʻnalishlarning shakllanishi bevosita hududiy va milliy xususiyatlarga borib taqaladi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Angliya, AQSH va skandinaviya mamlakatlarida til, mantiq va fan xususiyatlarini oʻrganuvchi tahliliy falsafa ustuvorlik qilmoqda. Falsafiy anʼanalar kuchli boʻlgan Germaniyada fenomenologiya va hermenevtika keng yoyilgan. Fransiya va AQSHda esa, boshqa mamlakatlarga nisbatan postmodernizm tarafdorlari koʻpchilikni tashkil qiladi.

Quyida mazkur yoʻnalishlarni qisqacha tahlil etamiz.

- *Fenomenologiya* bu til toʻgʻrisidagi intensional aktlar, yaʼni maqsadli voqea-hodisalar kechinmasi, koʻrinishidir. Fenomen grekcha soʻz boʻlib, “koʻrinayotgan, bilinayotgan” degan maʼnoni bildiradi. Bu erda inson ongi va uning hissiy tajribasi hamda anglash jarayonida koʻringan, bilingan holat nazarda tutiladi. Fenomen – bu his qilish, sezish, xayol, tasavvur va fikr. Fenomenologiya esa, anglash haqidagi taʼlimot boʻlib, fenomenlar va ularning maʼnolarini tadqiq etadi.

<sup>1</sup> Каранг: Липкин А. И. (ред.) Философия науки. — ЭКСМО, 2007. — 608 с

<sup>2</sup> Философия языка. Редактор-составитель Дж. Р. Серл. —М.: Едиториал УРСС, 2004. - 208 с.

Bu yoʻnalishda til va ong munosabatiga alohida eʼtibor qaratiladi. Unga koʻra til onga berilgan fenomenlarning alohida fenomenologik jihatdan «tozalash» qurilmasidir. Zero, inson til va tafakkur vositasida real voqelikni chuqur tushunish va oʻz-oʻzini anglash holatining mustaqilligini anglab etadi. Mazkur taʼlimotga koʻra «eydos», yaʼni miyada muhrlangan tabiiy obraz til vositasida reallashadi.

Fenomenologiyaning rivojlanishi E.Gusserl faoliyati bilan bogʻliq, shuningdek rus faylasuflari G.G.SHPet va A.F.Losevlarning ham fenomenologiyaning keyingi taraqqiyotiga qoʻshgan xissasi eʼtiborga loyiq. Mazkur olimlarning fikricha, inson hayoti ranglar, xushboʻyliklar, turfa tasavvur va tuygʻular bilan boy boʻlib, fan, gʻoyalar, tushuncha va mantiq darajasiga etganda kambagʻal, quruq va mavhum boʻlib qoladi. Nega shunday boʻladi, degan savolga fenomenologlar, - bunga sabab oʻz ongimizni yaxshi bilmasligimizda, deb javob beradi.

Fenomenologlar fikricha, falsafa bilan shugʻullanuvchi boshqa yoʻnalish vakillari ong masalasiga yetarli eʼtibor berishmaydi va oqibatda, falsafa haqida tasavvur va hayot maʼnosining ildizi ham mavhumligicha qoladi. E.Gusserl bu mavxumlikni bartaraf etish oʻz ijodida ong tahlilida intensionallik, eydos, noema, noezis, retensiya, protensiya kabi tushunchalarni qoʻllaydi. Xususan, u fenomenologiyani intensional aktlar kechinmasini ifodalovchi sof ong haqidagi fandır<sup>3</sup>, deydi.

Intensionallikda ongning predmetli mazmuni aynanlashadi, yaʼni hodisa oʻzining obʼektivlik mazmunini onga “murojaat” qilganda topadi. Intensionalliksiz ong hech narsadir. Intensionallik akti orqali belgidan tushunchaga, tushunchadan mushohadaga, mushohadadan tasavvurga, tasavvurdan obʼektga qarab boriladi. Gusserl intensionallikning ikki – aniq va noaniq turlarini farqlaydi. Aniq intensionallik – bu kechinmalar, noaniq intensionallik bu – predmet haqida bilganlarimizdir<sup>4</sup>, deydi u. Aytish joizki, bu ikki holat dialektik munosabatda boʻlgandagina intensionallik akti faol boʻladi, aks holda, bilimlar rivoji kuzatilmaydi. Gusserl “Mantiqiy tadqiqotlar” asarida “noema” tushunchasini qoʻllaydi, noema bu – idrokning maʼno birligi, fikrdir. Noematik intensionallik predmetning sifatiy xususiyatlarni belgilaydi. Shuningdek, mazkur asarda Gusserl inson xotirasining ikki xususiyati – retensiya va protensiya haqida ham toʻxtalib oʻtadi. Retensiya- bu boʻsh xotira, yaʼni “sof ong” holatidagi ilk xotira. Protensiya esa, “ochiq ong”, yaʼni qabullashga tayyor turgan xotiradir<sup>5</sup>. Umuman olganda, E.Gusserl ijodi fenomenologiyaning mustahkam asosini yaratdi. Gusserl fenomenologiyasining

<sup>3</sup> Гуссерль Э. Собрание сочинений. Том 1. –М.: 1994. –С. 165

<sup>4</sup> Ўша жойда, -С. 172

<sup>5</sup> Гуссерль Э. Логические исследование. –М.: 1998. –С. 296

asosiy xususiyati shunda ediki, u sof metodologik va gnoseologik uslublarni ong va fikrlash jarayonida qo‘llab, tajribadan o‘tkazdi.

- *Analitik (tahliliy) falsafada* esa fenomenologiyadan farqli ravishda tilning o‘zigagina e‘tibor qaratiladi. U mantiq va tilning batafsil tahlili bilan shug‘ullanadi. Shuning uchun ham bu yo‘nalish tarafdorlari izlanishlarida til to‘g‘risida anchagina qimmatli manbalar yig‘ilgan. Mazkur maktab vakillari (B.Rassel, G.Frege) XX asrda falsafaning xuddi matematika kabi boshi berk, chigal yo‘lga kirib qolganini va bu chigalliklardan faqat til va mantiq vositasi bilan xalos bo‘lish mumkinligini qat‘iy ta‘kidlaydi. Shu bilan birga, tahliliy falsafa vakillari falsafaning xiralashib, noaniq bilim bo‘lib borayotganini va uni aniqlashtirish, tushunarli bo‘lishini ta‘minlash zarurligini e‘tirof etishadi.

Analitik falsafada til to‘g‘risidagi mantiqiy-falsafiy asarlar (traktatlar) keltirib o‘tilishi bilan bir qatorda til imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashda uning qo‘llanishida aniqlik va ilmiylikka rioya qilish talab qilinadi. Shu ma‘noda, analitik falsafa vakillari falsafiy muammolarni til doirasida hal qilishga harakat qilganlar. Bu yo‘nalish tarafdorlari tilni tadqiq etishda tahliliy usullarga alohida e‘tibor qaratadilar. Bu usullar o‘z navbatida reduksion va noreduksion guruhlariga bo‘linadi. Ular hozirda ham tilshunoslikda keng qo‘llanilmoqda. Masalan, shu yo‘nalishning asoschilaridan hisoblangan ingliz faylasufi B.Rassel mazkur usullarga asoslanib, mantiq tili bilan tajriba va fan tili o‘rtasidagi hamohanglikni ko‘rsatib bergan. Shuningdek, Rassel formalizatsiya usulini oddiy tilda so‘zlarni ifoda qilishda qo‘llash mumkinligini inkor qiladi

Falsafaning tushunarligi individual miyadagi xususiy tasavvurlar emas, balki, til bilan bog‘liq. Fikr va sezgilardan farqli ravishda tashqi dunyoning tilli ifodasi haqiqatga yaqindir. Ularning fikricha, bu shunday tilki, u hammaga birdek tushunarli va ahamiyatli. Masalan, “Men atirgulning atrini tuyayapman” va “Ko‘chada qattiq shamol bo‘layapti”. Faqat ikkinchi gapgina hamma uchun tushunarli va ahamiyatli bo‘la oladi. Demak, mazkur maktab vakillari fikricha, hozirgi zamon falsafasining ob‘ekti ham faqat yuqorida keltirilganidek, til bilan ifodalanadigan va ayni paytda, barcha uchun tushunarli va ahamiyatli bo‘lgan masalalar bo‘lishi lozim.

- *Germenevtik* yondashuvga ko‘ra til bu borliqning mustaqil qismi hisoblanadi. Unga ko‘ra tajribaning shakllanish mexanizmi ham tilda “joylashgan”dir. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, til insonning dunyoga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. Chunonchi, til yordamida inson voqelikni nazariy bilibgina qolmay, uni hayotiy-amaliy “sinovdan” o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu ma‘noda, uchlik: dunyoning mohiyati – til – yashashga amal qilinadi. Voqelikni anglash bir qancha

vositalar – imo-ishora, belgi, simvollar orqali kechadi. Bunday belgilar ichida til hayotda eng ko‘p muomalada bo‘lgan vositadir.

Hozirgi zamon falsafasini to‘la bayon etish uchun *postmodernizmga* alohida to‘xtalishimiz lozim. Postmodernizm tarafdorlari ham o‘z qarashlarida tilni falsafiy lashtirishga harakat qiladilar. Postmodernizmni aksariyat kishilar g‘ayrioddiy, ajib falsafa deyishadi, uning tarafdorlari kundan-kunga oshib bormoqda. Yo‘nalishning yirik vakillari sifatida fransuz faylasuflari Jak Derrida, Jan Lioterlarni qayd etish mumkin, AQSHda ham mazkur ta‘limot tarafdorlari talaygina. “Postmodern” so‘zi moderndan so‘ng degan ma‘noni bildiradi. Fransuzchada “modern” zamonaviy degani. Postmodern, avvalo, yangi davr falsafasiga qarshi yo‘naltirilgan falsafadir <sup>6</sup>. Postmodernchilarning fikricha, fenomenologiya, germenektika va tahliliy falsafa mohiyatan yangi davr falsafiy g‘oyalarni inkor etmaydi. Ular insonni cheklab qo‘yuvchi “totalitar” tizimdan voz kechishga tayyor, xususan, ularning fikricha qat‘iy mantiqiy tizimlar, tugal xulosalar, har qanday barqarorlikni izlash, nufuzli shaxslar yonida ta‘zim qilish, hokimiyat strukturalari, shu o‘rinda fan va texnika uzviyligini ta‘minlashga intilish, insonlar o‘rtasida doimiy kelishuvchanlikni mustahkamlashga urinish, eskirib qolgan madaniy va axloqiy g‘oyalarga sig‘inish kabilar har qanday “taz‘yiqlar”ni zaiflashtirishga harakat qiladilar.

## **XULOSA**

Xullas, analitik falsafa vakillari tilning ilmiy xususiyatiga e‘tibor qaratgan bo‘lsa, postmodernizmda tilning ilmiy-falsafiy mazmun-mohiyati bilan bir qatorda uning estetik xususiyatiga ham alohida e‘tibor qaratilgan. Masalan, postmodernizmda tildagi ba‘zi bilib bo‘lmaslik hodisasi, «belgilanuvchidan qolgan qoldiq qiziqtiradi, bu esa «belgilovchi sub‘ektning tiliga» xos bo‘lgan ziddiyatdan holi bo‘lishiga olib keladi. Unga ko‘ra biluvchi sub‘ekt gnoseologik faoliyatning markazi sifatida «dunyoga yuz ochib», unga singib ketadi. Natijada reallik poyonsiz yagona «matn» sifatida namoyon bo‘ladi, u o‘zida metaformalarni, illyuziyalarni, sitatalarni mujassam etadi. Bu esa til muammosini falsafiy jihatdan tahlil qilish yo‘llarining ko‘pligiga, u haqidagi haqiqat va qadriyatlarni talqin qilishda ko‘p variantlilikka olib keladi.

## **REFERENCES**

1. Qarang: Lipkin A. I. (red.) *Filosofiya nauki*. — EKSMO, 2007. — 608 s
2. *Философский язык*. Редактор-комполитор Dj. P. Сирл. - М.: Едиториал УРСС, 2004. - 208 с.

<sup>6</sup> Лингвопозетика русской литературы эпохи постмодерна. — СПб.: Изд-во С.-Петербур. ун -та, 2007. —410 с.

3. Gusserl E. Sobranie sochineniy. Tom 1. –M.: 1994. –S. 165
4. O‘sha joyda, -S. 172
5. Gusserl E. Logicheskie issledovanie. –M.: 1998. –S. 296
6. Лингвопоэтика русской литературы эпохи постмодерна. — СПб.: Изд-во С.-Петербур. ун-та, 2007. — 410 с.
7. Baratov, R., & Uzbekova, S. (2022). INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRODUCTION IN THE PROCESS OF TRAINING. *World scientific research journal*, 4(2), 7-11.
8. Ramatov, J., Baratov, R., Jurabayev, N., Umarova, R., & Mamajanova, G. (2022, June). Evolution of railway construction development in Uzbekistan: Past and prospects. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 030011). AIP Publishing LLC.
9. Ramatov, J., Umarova, R., Baratov, R., Khasanov, M., Sulstonov, S., & Kushakov, F. (2022). PROBLEMS OF INFLUENCE OF ISLAM ON CONSCIOUSNESS TRANSFORMATION. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 591-597.
10. Baratov, R., Nuriddinov, S., Tokhtaboev, E., & Achilova, G. (2022, June). " One belt-one road" initiative-as a modern transport logistics. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 030058). AIP Publishing LLC.
11. Раматов, Ж. С., Муратова, Д., Султанов, С. Ҳ., Тухтабоев, Э., Кушаков, Ф., & Хасанов, М. Н. (2022). ИЖТИМОЙ АДОЛАТ ВА ҚАДРИЯТЛАР ПЛЮРАЛИЗМИ. *World scientific research journal*, 8(1), 102-108.
12. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Ҳ., Муратова, Д.А., Хасанов, М.Н., & Эрнийёзов, У.К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ ҚИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10), 376-386.